

Rustamova Mahliyo Anvarjon qizi

Urganch Davlat universiteti

Ijtimoiy – Iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix (mintaqalar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurushlari yo'nalishlarini o'rGANADI. Aleksandr faoliyati haqidagi tadqiqotlar tarixning rivojlanishi va umumlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga Aleksandr haqida o'rganish, davriy sanalarni aniqlash, tarixiylik nuqtai nazaridan obyektiv tahlil etish va boshqa qator masalalar ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Makedoniya, Aleksandriya shahri, Gavgamel jangi, Aleksandriyadan Persepolgacha, afsonaviy Troya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются военные походы Александра Македонского. Исследования деятельности Александра способствуют развитию и обобщению истории. При этом изучение Александра, определение периодических дат, объективный анализ с точки зрения истории и ряд других вопросов являются основными целями данного исследования.

Ключевые слова: Македония, город Александрия, битва при Гавгамеле, от Александрии до Персеполя, легендарная Троя.

Abstract: This article examines the military campaigns of Alexander the Great. Studies of Alexander's activities contribute to the development and generalization of history. At the same time, learning about Alexander, determining periodic dates, objective analysis from the point of view of history, and a number of other issues are the main goals of this research.

Keywords: Macedonia, the city of Alexandria, battle of Gawgamel, from Alexandria to Persepolis, the legendary Troy.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Makedoniyalik Aleksandr Makedoniya podshosi Filipp II va uning rafiqasi Olimpiyadaning o'g'li. Aristoteldan ta'lim olgan, harbiy ishni otasidan o'rgangan.

Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari geografik ravishda jahon tarixidagi eng katta yo'naliishlardan birini tashkil etgan. Uning qo'shini Shimolda Makedoniya, Yunoniston, Baqtriyaga va janubda Misr, Eron, Hindistonga yo'nalgan edi. Aleksandr Makedonskiyning davlati, ma'lumotlarga ko'ra, bir qancha hududlarni birlashtirgan Makedoniya imperiyasi bo'lib, uning o'z boshqaruv tizimi va siyosiy strukturasi mavjud bo'lgan. Aleksandr o'z yurishlarini Yunonistondan boshlagan. U otasi Filippning o'limidan so'ng darhol Yunonistonga qarshi harbiy harakatlar boshladi. Yunoniston egallangandan so'ng Aleksandr e'tiborini Danube (hozirgi Dunay daryosining delta qismi) daryosining shimoliga qaratdi.

Makedoniyalik Aleksandr Osiyoga qadam qo'ygan ilk Makedoniya podshosi bo'lib, u mil. avv. 334- yilning bahorida Osiyoga o'z harbiy harakatlarini boshlaydi. Bu paytda uning armiyasida 37.000 jangchi bor edi. Aleksandr ixtiyorida otliq va piyoda qo'shinlardan tashqari, harbiy flot ham mavjud bo'lgan.

Granik jangidan so'ng Aleksand o'z qo'shinlarini Anatoliyaning janubi bo'y lab g'arbga boshlab ketadi va Lidiya, Kariava Lusia hududlarini ham egallaydi. Mil. avv. 333-yilda O'rtayer dengizining shimoli- sharqiy qirg'og'idagi Iss shahri yaqinida Fors poshosи Doro III va Makedoniya poshosи Aleksandr o'rtasida dastlabki yirik jang bo'lib o'tadi. Jang maydoni noqulay bo'lganligi tufayli forslar butun boshli qo'shinni ishga sola olmaydilar. Iss janggi Aleksandrning g'alabasi bilan yakunlandi. G'alabadan ruhlangan Aleksandr Suriya va Falastin tomon yo'l oladi. Finikiyaning Tir shahri Aleksandrga ma'lum muddat qarshilik go'rsatadi ammo qattiq qarshilikka qaramasdan Aleksandr Tir shahrini egallab, shaharni vayron etadi. Tir shahri egallangach Aleksandr yurishlarini Finikiyadan janubga tomon davom ettiradi. Mil. avv. 332- yilda Aleksandr Misrga yurish qiladi. Misrdagi Eron satrapi Aleksandrga qarshilik ko'rsatish o'miga unga xayrixoxlik bildirib, kohinlar bilan birga Aleksandrni qarshi oladi. Chunki, Misrliklar Eron asoratidan qutilganligidan xursand edilar. Aleksandr Misr xudolariga qurbanlik qilish haqida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

buyruq beradi. Buni ko'rgan Misr ahli, balki, zodagonlar va kohinlar ham Aleksandrning Misr dini va urf- odatlariga muhabbatini ko'rib xursand bo'lismishadi.

Doro III va Aleksandr o'rtaida hal qiluvchi jang mil. avv. 331-yil 1-oktabrda shimoli- sharqiy Iroqdagi Gavgamel qishlog'ida yuz beradi. Jangda Doro III boshliq fors qo'shini mag'lub bo'ladi. Bu tarixdagi eng yaxshi ta'riflangan jang hisoblanadi. Gavgamel jangidan so'ng Aleksandr Fors davlatining markazini va Bobil, Suza, Persepol kabi yirik shaharlarni egallaydi.

Mil. avv. 330- 329 yillar qishida Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Hinduqush dovonidan o'tib Shimoliy Baqtriya hududlariga kirib boradilar. Baqtriya satrapi Aleksandrga qarshi yurush boshlaydi ammo yunon- makedon qo'shinlaridan yengiladi. Shundan so'ng Aleksandr Baqtriya, Aorn, Drapsak kabi qal'alarini egallaydi. K.K.Rufning ma'lumotlariga ko'ra Baqtiriyada Doro III ga qarshi fitna uyishtiriladi va u o'ldiriladi. Fitnaga boshchilik qilgan Bess o'zini Ahamoniylar podshosi deb e'lon qiladi. Ammo, Bess Aleksandrga qarshi harbiy harakatlar qila olmaydi. Aleksandr Bessni zulimkor sifatida ko'rib, uni mag'lub etishga kirishdi. Bessga qarshi boshlangan bu harakat Markaziy Osiyo bo'ylab katta sayohatga aylandi.

Mil. avv. 329- yilda Aleksandr Amudaryodan o'tib O'rta Osiyo hududiga kirib keladi ammo u bu yerda mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchraydi. Aleksandr dastlab Navtaka viloyatini (Sharqiy Qashqadaryo) egallab, So'diyonaning poytaxti Maroqandaga (Samarqand) yo'l oladi.

Rimlik tarixchi Kvint Kursiy Rufning yozishiga qaraganda, yunon-makedon qo'shinlari Maroqanda shahrini egallahda unchalik qarshilikka uchramadilar va shaharda o'z garnizonini qoldirib, yaqin atrofdagi qishloqlarni vayron etishgan. " Shundan so'ng shimoli- sharqqa tomon harakatlana boshlashgan. Aleksandr Usturshonaning tog'li hudud aholisini yengib, Sirdaryo tomon harakat boshlagan.

Mil. avv. 329- 327- yillarda Makedoniyalik Aleksandr Turondagi istilolaridan so'ng e'tiborini Hindistonga qaratdi. Shu munosabat bilan Aleksandr Hindistonning Panjob o'lkasiga bostirib kiradi. Panjobda ko'plab mayda davlatlar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Aleksandrga itoat etadilar ammo taniqli hind sarkardasi Por Aleksandrga qarshi harbiy harakatlarga kirishadi. Aleksandr va por o'rtasida Hind daryosining Gidasp irmog'i bo'yida qattiq jang bo'lib o'tadi. Jang qziqgan pallada Aleksandrning suykli oti Butsefal o'q tegishi natijasida halok bo'ladi. Keyinchalik Aleksandr uning sharafiga Hind daryosi bo'yida Butsefaliya shahrini qurdiradi. Gidasp jangida Por 9 joyidan og'ir yarador bo'ladi.

Hindiston poytaxt Bobilga qaytgan Aleksandr mil. avv. 323- yilda o'zi bosib olgan davlatlardan kelgan elchilarni qabul qiladi. Aleksandr marosim davomida Arabistonni bosib olish maqsadi borligini bayon qiladi. Ammo mil. avv. 323- yil 10- iyun kuni Aleksandr zaharlanish oqibatida vafot etadi. Uning o'limi haqida olimlar hali aniq qarorga kelisha olmagan.

Xulosalar: Aleksandr Makedonskiy o'z davrining kuchli hukmdori bo'lган. Yosh bo'lishiga qaramasdan Aleksandr juda yirik imperiyaga asos sola olgan diqqatga sozovordir. Yoshlik chog'laridan davlat tutimi, siyosiy masalalar, qo'shin tutumi, harbiy usullarning o'rgatilishi Aleksandrga juda foydali bo'lган desak adashmagan bo'lamic. Aleksandrning harbiy yurishlari dunyo tarixida katta ahamiyatga egadir. Aleksandrning harbiy yurishlari o'sha mintaqada tarixiy o'zgarishlarga sabab bo'lган. Tarixchilar Aleksandr Makedonskiy haqida turli fikrlarga ega bo'lib, ularning fikrlari o'zaro solishtirishlarga qarab o'zgarib boradi. Aleksandr Makedonskiyning dunyo tarixidagi tutgan ro'li va janglardagi taktikasi haqida bugungi kunda ham izlanishlar davom etirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. D.Urakov, R.Tursunov, A.Biykuziyev, B.Xaynazarov –“Jahon Tarixi” “Innovatsiya- Ziyo” Toshkent 2020. 195-220 betlar.
2. A. Kabirov – “Qadimgi Sharq Tarixi” “Tafakkur” Toshkent 2016. 276-280 betlar.
3. R.Rajabov – “Qadimgi Dunyo Tarixi” “Fan va texnologiya” Toshkent 2009. 289- bet.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

4. Q. Usmon, M.Sodiqov, S.Burxonova – “ Iqtisod -Moliya “

Toshkent 2016. 44-48 betlar.